



BANK BOSHQARUVIDA OLIB BORILGAN ISLOHOT VA O'ZGARTIRISHLAR

Akbarova Faridaxon Ibroximjonovna

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" kafedrasida assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7486263>

ARTICLE INFO

Received: 16th December 2022

Accepted: 25th December 2022

Online: 27th December 2022

KEY WORDS

Iqtisodiyot, bank boshqaruvi, bozor munosabatlari, moliya institutlari, korxonalar va h.k.

ABSTRACT

Iqtisodiyot har bir mamlakatning moliyaviy jihatdan tayangan asosiy ustuni demakdir. Bank faoliyati esa o'sha ustunning eng ko'p qismini tashkil qiladi desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Ushbu maqolada bank boshqaruvida (yoki menejmenti) olib borilgan islohot va o'zgarishlar haqida batafsil bayon qilinadi.

Markaziy Bank banklarning banki sifatida bank va moliya muassasalari faoliyatining barqarorligini ta'minlaydi. Birinchi navbatda, u ko'pchilik moliya institutlari, banklarning faoliyatida moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelganida, banklar omonatchilar oldidagi o'z majburiyatlarini bajara olmay qolgan holda moliyaviy sarosima paydo bo'lishining oldini olishi kerak. Bu masalani hal qilish uchun Markaziy bank, avvalo, tartibga solish va nazorat qilish funksiyalarini ikkinchi pog'ona - tijorat banklari tizimiga nisbatan bajaradi. Markaziy bank majburiyatiga tijorat banklarining har kunlik faoliyatiga aralashish kirmaydi. Markaziy bank tijorat banklarning me'yoriy boshqarilishi, ularning to'lovga qobiliyatligi va likvidligini ta'minlanishini kuzatib borishi va omonatchilar manfaatlarini himoya qilishi kerak. Bularning barchasi nazorat me'yorlari tizimi yordamida amalga oshirilib tijorat banklari pog'onasiga yetkaziladi. Mustaqillikka erishilgunga qadar O'zbekiston bank muassasalari Sobiq Ittifoq bank tizimi tarkibiy qismiga kirar

edi. SHu bilan birga bu banklar Sobiq Ittifoq bank tizimi doirasidan tashqarida faoliyat ko'rsata olmasdilar. Bank tizimi 3 turdagi banklarni: SSSR Davlat banki, SSSR qurilish banki va SSSR Tashqi savdo bankini va Davlat Mehnat omonat-jamg'arma kassalarini o'z ichiga olardi. Sobiq Ittifoq bank tizimida Davlat banki monopol mavqega ega bo'lib, u bir vaqtning o'zida emissiya instituti, qisqa muddatli kreditlashtirish, xo'jaliklarga hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi markaz hisoblanardi. Ham emissiya funksiyalarini, ham hisob-kitoblar va kreditlar bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish funksiyalarini bajarishga monopollashuvi Davlat bankini davlat boshqaruv va nazorat organiga aylantirgan edi. Ma'muriy buyruqbozlik davrida kredit munosabatlari iqtisodiyotni boshqarishda shaklan yuzaki xarakterga ega edi. Kredit resurslari va pul resurslari harakatini ham boshqarish, ham nazorat qilish davlat bankining monopol ta'siri ostida edi. Bular o'z navbatida Sobiq Ittifoq bank tizimining tor doirada rivojlanishiga olib keldi.



Markazlashtirilgan bank boshqaruvi asosida faoliyat ko'rsatgan respublika banklari tor doirada pul resurslari harakatini boshqarar, lekin uni boshqaruvchiligini nazorat qilish Sobiq Ittifoq Davlat banki qo'lida edi.

Bank tizimini takomillashtirish jarayoni davomida davlat banki o'zining kredit tizimidagi markaziy o'rnini saqlab qolgan holda korxonalar va tashkilotlarga kredit berish va ular bilan hisob-kitoblarni olib borish funksiyasini maxsus ixtisoslashgan banklarga topshirdi. YA'ni bankning emission faoliyatini kreditlash faoliyati bilan birga olib borish funksiyasiga chek qo'yiladi. Davlat banki ixtisoslashgan banklar faoliyatini boshqaruvchi, barcha banklar uchun bir xil pul- kredit siyosatini olib boruvchi muassasaga aylandi. Bank tizimining takomillashtirilishi natijasida vujudga kelgan maxsus ixtisoslashgan banklar: Sanoat qurilish banki, Kommunal kurilish va Sotsial taraqqiyot banki, Agrosanoat banki, Tashqi iqtisodiy faoliyat banki, Jamg'arma banki tashkil qilinib xo'jaliklar bilan banklar o'rtasidagi aloqalar tobora yaqinlashdi, Ixtisoslashtirilgan davlat banklari o'zlarida ma'lum darajada boshqaruvchilik rolini saqlab qoldilar. Bank tizimini takomillashtirish jarayonida juda muhim natijalarga erishildi, lekin tashkil qilingan banklar iqtisodiy munosabatlarning xususiyatlarini to'liq ifoda qilolmasdi, shuning uchun ham bank tizimini yanada takomillashtirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi.

Iqtisodiy tizimni qayta qurish uchun asosan va birinchi galda ichki xo'jalik jamg'armalariga tayanish lozim. Tijorat bank moliya bozoriga kredit resurslariga talab bilan kirar ekan, nafaqat iqtisodiyotda mavjud bo'lgan barcha jamg'armalarni maksimal darajada

yig'ishga, balki joriy iste'molni chegaralash bilan jamg'armani shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatmog'i lozim. Jamg'arma mablag'larni shakllantirishda tijorat banklarni depozit siyosatining ta'siri katta. Omonatchilarga yuqori foizlardan tashqari, bank kreditlariga yuqori kafolat va ishonchlilik kerak. Omonatlarni qo'yishda xavfsizlik bilan bir qatorda mijoz tijorat bank faoliyati etarlicha ma'lumotga ega bo'lishi va bu bilan u bankni moliyaviy ahvoriga baho bera olishi mumkin. Tijorat banklar faoliyatida asosiy o'rinni korxonalar, tashkilotlarni, aholini va turli sub'ektlarni kreditlash egallaydi. Kreditlash jarayonini tashkil qilishda bank moliyaviy vositachilarni rolini o'ynaydi. U bo'sh turgan mablag'larni jalb qiladi va o'z nomidan mijozlarga vaqtincha foylanishiga beradi. Bank krediti hisobidan iqtisodiyotning muhim tarmoqlari-sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo va boshqalar moliyalashtiriladi va ishlab chiqarishni kengaytirishga asos bo'ladi. Tijorat banklari shartnoma asosida birlarining mablag'larini depozit, kredit shaklida jalb etishlari, joylashtirishlari, o'z ustavlarida ko'rsatilgan boshqa o'zaro operatsiyalarni amalga oshirishlari mumkin. Mijozlarga kredit berish va o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish uchun mablag' etishmay qolgan taqdirda tijorat banklari kredit resurslari olish uchun Markaziy bankka murojat qilishlari mumkin. Tijorat banklari operatsiyalari bo'yicha foiz stavkalari ularning o'zlari tomonidan mustaqil belgilanadi. Ammo bu stavkalar davlat pul-kredit siyosatining bosh yo'nalishlarida belgilab beriladigan foiz stavkalari siyosatiga asoslangan bo'lishi lozim. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida qimmatli qog'ozlar bozorining yaxshi taraqqiy etmagan bosqichlarida iqtisodiyotda mavjud bo'lgan asosiy



moliyaviy resurslar banklarga omonatlarni jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Banklarning keyingi funksiyasi bu mustaqil sub'ektlararo to'lov operatsiyalarini amalga oshirish funksiyasidir. Rejali iqtisodiyot davrida barcha to'lovlar bir davlat banki orqali amalga oshirilgan, hisob-kitoblarni bunday tizimida to'lovlarni amalga oshirishda davlat o'zi kafil bo'lardi. Mustaqil tijorat bank tizimini shakllantirish hisob-kitob tizimini ajralishiga olib keladi va banklar o'z zimmalariga oladigan risk darajasini ko'paytirdi. MFO hisob varaqalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar o'rniga banklararo hisobning korrespondent schetlarga o'tishi ham risk darajasini ko'payishiga olib keldi. Bunday sharoitda tijorat banklar, mijozlar hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirishilishi bo'yicha mas'uldir.

O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda ikki pog'onali bank tizimi shakllantirildi va banklarning amalga oshiradigan operatsiyalari xalqaro darajaga ko'tarildi. Xususan bank tizimining erkinlashtirilishi va xususiylashtirilishi bunga misol bo'la oladi. Banklarning ixtisoslashuvidan voz kechish va ular faoliyatining universal lashuvi ham aynan mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning biri hisoblanadi. Har bir korxon va tashkilot faoliyatini amalga oshirishning muhim masalalardan biri. boshqaruv masalasi. Tijorat banklari ham ko'zlangan strategik va joriy maqsadlarga erishish uchun samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lishi talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki makro darajada o'z faoliyatini amalga oshirib. pul muomalasini tartibga solish.

naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil etish, valyuta kursini belgilash. monetar siyosatni amalga oshirish va kredit tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish hamda tartibga solish vaziflarini bajaradi. Iqtisodiyotda turli mulkehilikning shakllanishi va ular salmog'ini oshishi ishlab ehiqarishning kengayishiga, YAIM. to'lov aylanmasi, investitsiyalar va kredit qo'yilmalari hajmining o'sishiga zamin yaratadi. Jamiyatda sub'yektlarning son jihatdan ko'payishi, tijorat banklari xizmatlari ko'Mamining oshishiga sabab bo'ladi. Natijada bank xizmatlariga bo'lgan talab oshib. ularni yanada rivojlantirish muhim hisoblanadi. Inqiroz davrida tijorat banklarining faoliyatini tartibga solish va uni boshqarish murakkab hisoblanib. pul muomalasasi, tovar aylanmasi va ishlab chiqarishdagi muvozanat buzilib. iqtisodiyotda nomutanosiblik kuchayadi. Inqiroz sharoitida banklar moliya va bank xizmatlari bozorida o'zining mavqeini saqlashi va zarur likvidlilik ko'rsatkiehlarini ta'minlashi lozim. Global molivaviy iqtisodiy inqiroz sharoitida tijorat banklarining mahsulot va xizmatlari salmog'i pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Lekin, iqtisodiy o'sishga erishish bilan moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talab oshadi. Bunday sharoitda tijorat banklari faoliyatini boshqarish, bank mahsulotlari va xizmatlarini takomillashtirishni talab etadi. Xususan, banklarning tashqi iqtisodiy faoliyati. norezident banklar va mijozlar bilan munosabatlarining rivojlanishi boshqaruv tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Banklarda samarali menejmentning tashkil etilishi bank barqarorligi va daromadligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bank boshqaruvi vositalari - bu banklar faoliyati va operatsiyalarini amalga



oshirishda foydalaniladigan m a'lum tartib qoida va me'yorlar majmuasidir. Bank menejmentining vositalari umumbank faoliyati va aniq bir operatsiya yoki xizmatga tegishli vositalarga bo'linadi. Umumbank faoliyatiga tegishli vositalar yoki me'yorlar majmuasi bank ustavidir. Chunki bankning ustavida bank amalga oshirishi mumkin bo'lgan xizmatlar, operatsiyalar va boshqa yo'nalishlar o'z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda boshqa xizmat va operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha tegishli tartiblar ishlab chiqiladi. Masalan, kredit siyosati, depozit siyosati, investitsiya siyosati va kadrlar siyosati kabilarga bo'linishi mumkin. Banklar o'z siyosatida tegishli boshqaruv o'byektlarini boshqarish usullarini o'zining ichki siyosatida aks ettiradi va shu asosda boshqaradi. Bozor munosabatlarini qaror topishi va rivojlanishi bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi hisoblangan bank tizimi va ular faoliyatini boshqarishning qonuniy asoslarini shakllantirish zaruratini keltirib chiqardi. Bank va bank faoliyatiga oid huquqiy islohotlar respublikamizda bozor iqtisodiyoti jarayonlariga moslashayotgan hozirgi rivojlanish davri bilan uzviy bog'liq holda vujudga kelmoqda. Huquqiy ta'minot bank menejmentining muhim elementi hisoblanib, banklar faoliyatini boshqarishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Har qanday munosabatlar singari banklar va ularning boshqa sub'yektlar bilan bo'ladigan munosabatlari albatta huquqiy asosga ega bo'lishi lozim. Chunki bank va mijozlar o'rtasida yuzaga keladigan turli holatlar m a'lum bir me'yorlar asosida muvofiqlashtirilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida huquqiy asosni shakllantirishni talab qiladi.

Tijorat banklari faonatiylarini umumiy yoki qisman m a'lum bir xizmatlar bo'yicha baholashda erishilgan natijalar va reja ko'rsatkichlari solishtiriladi. Natijada ushbu bank ko'rsatkichlarni xuddi shunday banklarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Bu esa, bank faoliyatini tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tahlil natijalari asosida tijorat banklarining rivojlanish tendensiyalarini ijobiy va salbiy jihatlarini ochib beriladi. Natijada bankning yo'qotishlari, foydalanilmagan zahiralari, rejalashtirishdagi nuqsonlar va noto'g'ri qabul qilingan qarorlarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi. Bankning tahliliy ishlari bank balansiga asoslanib, tanlangan yo'nalishlarda amalga oshiriladi. Bank menejmentining muhim masalalaridan biri kredit tashkilotlari faoliyatini tashkil qilish hisoblanadi. Banklar faoliyatini tashkil qilishda mehnatni funksional taqsimlash sharoitida ma'lum tartib-qoidalarni qabul qilinishi tushuniladi. Banklar faoliyatini boshqarishda va tarkibiy boiim alarida kamida eng asosiy 3 ta maqsadni amalga oshirish lozim:

- yuqori sainaradorlikka erishish:
- yetarli darajada likvidlilikni saqlash
- bank barqarorligi va xavfsizligini ta'minlash.

Banklar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, banklarning tarkibiy bo'linmalari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi, qarorlar qabul qilinishiga nazoratni kuchaytirib bank faoliyatini ratsional boshqarishga erishiladi. Buning natijasida bankning tarkibiy bo'linmalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tartibga solib qolmay, balki bankning tarkibiy tuzilmasida hamma elementlar aloqadorligi rivojlanadi. Banklar faoliyatini tashkil qilishning vazifasi shundan iboratki, mehnatni



taqsimlash vositasida bo'limlar filiallar, boshqarmalar, qo'mitalar, departamentlar tashkil etilib bankning maqsadlarini amalga oshirishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Buning uchun esa, ma'lumot, axborot ta'minot, ma'lum tartiblar ishlab chiqish va bank faoliyatini amalga oshiruvchi protseduralar zarur bo'ladi. Banklar faoliyatini tashkil qilishning tamoyillarida bank faoliyatini spetsikasi bankning zaruriy tarkibiy bo'linmalarini aniqlab beriladi. Ixtiyoriy olingan bankada quyidagi bo'limlar bo'lishi mumkin: bank kengashi; boshqaruv, boshqarma, bo'linma, filial va boshqalar. Bank faoliyatini tashkil etishda uning tarkibiy bo'limlarini to'g'ri taqsimlanishi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Masalan, har bir bankda Bank Kengashi, Boshqaruv, Ma'muriy boshqaruv, har-xil moliyaviy, tijorat va umumiy masalalar bilan ishlovchi turlicha bo'limlardan tashkil topadi. Bank kengashiga odatda, uning ta'sisчилari kiradi. Banklarning ta'sisчилari odatda, ham yuridik, ham jismoniy shaxslardan tashkil topadi. Bank kengashi bankning

yillik hisobotini tasdiqlaydi, shuningdek, bank faoliyatini strategik masalalarini hal qilishda faol ishtirok etishlari mumkin. Boshqaruv (Direktorlar kengashi)ga odatda, bankning umumiy boshqaruviga, uning strategik maqsadlarining bajarilishiga javobgar hisoblanadi. Boshqaruv kengashiga bankning raisi (prezidenti, boshqaruvchisi), uning o'rinbosarlari, bankning muhim boshqarma boshliqlari kiradi.

Amaliyot ko'rsatishicha, yuqoridagi bo'limlar o'zaro bog'liq bo'lib, faoliyatni amalga oshirishda zaruriy ma'lumotlar almashadi. Bank faoliyatini tashkil etishda yuqoridagi kabi bo'limlarning tashkil etilishi bank faoliyati yo'nalishi. hajmi ko'lamiga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida chiziqli va matritsali modellardan foylaniladi. Albatta har bir bank bunda o'zining spetsifik xususiyatidan kelib chiqadi.

References:

1. Алавердов Р. "Стратегический менеджмент в коммерческом банке" М: Питер, 2005
26. Банковское дело: учебник. / Е. Ф. Жукова. Н. Д. Эриашвили. - М.: Ю НИТИ-ДАНА, 2006. - 576с.
2. Лавруш ин О.И. Банковское дело: учебник. 2-е изд. Перераб. и доп. / О.И. Лавруш ина. - М.: Финансы и статистика, 2008. - 594с.
3. Mirzaev F.I. "Banklararo raqobat: m ohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari" T: "M oliya", 2008y.
4. Абдуллаева III., Файзуллаева М., Галак О. Банковский менеджмент и маркетинг. Учебное пособие./ - Т.: "IQTISODM OLIIYA", 2007. - 182 с.